

**JANUBIY FARG‘ONA SHAROITIDA (INSECTA ODONATA)
NINACHILARNING INSON XO‘JALIK FAOLIYATI UCHUN AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ СТРЕКОЗЫ (INSECTA ODONATA) ДЛЯ
ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕЛОВЕКА НА ЮГЕ ФЕРГАНЫ**

**IMPORTANCE OF DRAGONFLY (INSECTA ODONATA) FOR HUMAN
ECONOMIC ACTIVITY IN SOUTHERN FERGANA**

Mo‘ydinova Dilobar Xamidulla qizi

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Yuldasheva Shohista

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi b.f.n., dotsent

Annotsiya. *Ninachi – Insecta , Odonata turkumiga mansub hasharot. Harakatlanuvchi bosh, kata ko‘zlar , kata tanasining ikki yonida yopiq bazan orqa qismida tik holatda bo‘luvchi to‘rtta shaffof qanotlari va cho‘zilgan ingichka qoringa ega kata hasharot. Ninachilar amfibiont hasharotlardir. Ular boshqa hasharotlar populyatsiyasini tabiiy nazoratchilaridir.*

Аннотация. *Стрекоза — насекомое, относящееся к отряду Insecta, Odonata. Крупное насекомое с подвижной головой, большими глазами, четырьмя прозрачными крыльями, которые закрыты с обеих сторон тела и стоят вертикально сзади, и удлиненным тонким брюшком. Стрекозы — земноводные насекомые. Они являются естественными регуляторами популяций других насекомых.*

Annotation. *A dragonfly is an insect of the order Insecta, Odonata. It is a large insect with a movable head, large eyes, four transparent wings that are closed on both sides of the body and erect at the back, and an elongated thin abdomen. Dragonflies are amphibious insects. They are natural regulators of other insect populations.*

Kalit so‘zlar : *Janubiy farg‘ona , ninachi , bioekologiyasi, imago, lichinka, bioindikator*

Ключевые слова: Южная Фергана, стрекоза, биоэкология, имаго, личинка, биоиндикатор.

Key words: Southern Fergana, dragonfly, bioecology, imago, larva, bioindicator

Ninachilar dunyo faunasida 6650 dan ortiq turni o‘z ichiga olgan qadimgi uchuvchi hasharotlar guruhi hisoblanadi. Ninachi vakillari butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan, Antarktikadan boshqa barcha hududlarda uchrashi mumkun.

Ninachilar Farg‘onaning Janubiy hududlarida ham ninachilar (Insecta Odonata) keng tarqalgan. Hozirgi davrda ninachilar soni kamayib bormoqda va ularning ayrim turlari hatto “Qizil Kitob”ga kiritilgan. Bu uchuvchi qadimgi hasharotlar odam uylariga kirmaydi, kasallik tarqatmaydi, odamlarni tishlamaydi va boshqa hasharotlarga nisbatan beozorroqdir. Ninachilar uchuvchi hasharotlarning eng yirik turlaridan. Ninachilarning to‘rtta shaffof qanotlari ko‘pgina tomirlangan bo‘lib ular ishonchli parvozni taminlaydi. Zamonaviy ninachilarning qanotlari 19sm, tana uzunligi 12sm gacha bo‘lishi mumkun. Ular taxminan 350 mln yil avval sayyoramizda paydo bo‘lgan. Ninachilar quruqlikda, suv havzalariga yaqin hududlarda yashaydi. Katta ninachilarda retikunal venali kata qanotlar har doim yon yomonda bazan tanasining orqasida tik turadi. Uzun oyoqlari oldinga yo‘naltirilgan va kuchli to‘plamlar bilan qoplangan, orqa oyoqlar oldingi oyoqlaridan uzunchoq va bu ninachilarning pastdan yuqoriga uchib o‘ljasini tutishga yordam beradi. Parvoz paytida tayoq shaklidagi ingichka qorin muvozanat vazifasini bajaradi. Ninachilarning ko‘zi yaxshi rivojlangan, 30000 ming fasatkali bu murakkab ko‘zlar bir vaqtning o‘zida bir necha yo‘nalishda ko‘rish mumkun.

Ninachilarning rivojlanishi 3 bosqichdan iborat: tuxum, lichinka, imago davrlaridan iborat. Kattalik davrida urg‘ochi ninachi tuxumlarini suv yuzasi yokida suv yaqinidagi o‘tlar orasiga qo‘yadi. Butun hayoti davomida 200 tadan bir mingtagacha tuxum qo‘yadi. Vaqt o‘tishi bilan tuxumdan lichinkalar hosil bo‘ladi. Lichinkalar imagolar kabi yirtqich hisoblanadi. Suvdagi lichinkalar chivinlarning lichinkalari bilan ham oziqlanadi. Shundan so‘ng lichinka bazi o‘simliklarning poyasiga sudraladi va uchishga qodir katta ninachiga aylanadi. Ninachilar amfibiont hasharotlar hisoblanib ular bir qancha qonso‘rar (chivin, pashsha) hasharotlarni qirib, sanitariya sifatida ular populyatsiyasining barqarorligini saqlab turadi. Bir kunda 40 tagacha chivin tutib yeyishi mumkun. Tabiatda ninachilar bioindikator tur sifatida

muhim sanaladi . Ninachilar juda ochko‘z . Ninachilar chivinlar , pashshalar bazan yirik turdagilari arilar bilan ham oziqlanadi. Uning kundalik ratsionining og‘irligi ninachi tana vaznidan ham ortib ketishi mumkun. Shu sababdan yirtqich ninachilar o‘ljasini havoda tutadi.

Janubiy Farg‘ona sharoitidagi ko‘pgina ninachilar suvning ifloslanishiga juda sezgir va ular suv omborlarining tozaligini o‘ziga xos ko‘rsatkichi bo‘lib ham xizmat qiladi. Agar lichinkalar turg‘un yoki sekin oqadigan suvlarda yashasa ularning rivojlanishi uchun ajralmas sharoit kislarod bilan to‘yingan boy suvning mavjudligi bo‘ladi. Va ninachilarning faqat bir necha turlarigina suvning ifloslanishiga toqat qila oladi. Ninachilar yashovchi hududlarga qarab suvlar toza ekanligini ko‘rsa bo‘ladi. Ninachilar chivinlar va midgeslarga qarshi kurashda bizning tinimsiz yordamchilarimizdir. Ninachilar sonining kamayishi qonxo‘r hasharotlarning sonini ortishiga sabab bo‘ladi. Qonxo‘r hasaharotlar inson qonini so‘rishi natijasida atrof muhit ham o‘z natijasida ifloslanadi. Ninachilar aynan ushbu hasharotlarning atrof muhitdagi muvozanatini taminlaydi. Qon so‘ruvchi hasharotlardan tashqari qishloq va o‘rmon xo‘jaligining bir qator zarakunandalari sonini tartibga ularning ro‘li katta.

Xulosa . Malumki so‘ngi yillarda ekologik sharoitlarning o‘zgarishi natijasida biologic turlarning kamayish holatini kuzatyapmiz, maqolada esa ninachilarning nechog‘lik tabiat va inson hayotidagi ahamiyati yoritilgan . Xususan ularning kamayishi inson sog‘lig‘iga bog‘liq boshqa hasharotlarning ortishi va buning natijasida insonlarda turli yuqumli kasalliklarning ko‘payish holati kuzatilishi mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белевич О.Э. Стрекозы рода Aeshna (Odonata, Anisoptera) Палеарктики // Автореферат дисс. ... канд. биол. наук. - Новосибирск, 2005. - С. 3-20
2. Murodov S.A. Umumiy entomologiya. Toshkent. O‘qituvchi. 1986.
3. Насекомые Узбекистана, 1993. с. 19-22.
4. Zokirova M.S., Qodiraliyeva M. Ninachilar (Odonata) turkumi vakillarining tarqalishi va bioekologik xususiyatlariga oid. // Farg‘ona vodiysi biologik xilma – xilligi: dolzarb muammolari va ularning yechimi Respublika ilmiy-nazariy anjuman. - Andijon. 2017. -99-100 b.
5. MO‘minov B.A., Zokirova M.S. Farg‘ona vodiysi ninachilari (Insecta: Odonata)ning mavsumiy faolligiga oid. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. - Namangan. 2020. - №2. - B.125-129.